
Tuman hokimi Yaponiya ta'lim tajribasi tatbiq etilayotgan maktabdagi shart-sharoitlar bilan tanishdi

Xabaringiz bor, joriy yildan boshlab viloyatimizdagi har bir shahar va tumanlarda tanlab olingan bittadan maktabda sinov tariqasida Yaponiya ta'lim tajribasi tatbiq qilinmoqda.

Mazkur loyiha bo'yicha Rishton tumanidagi 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi tanlab olingani haqida xabar bergan edik. Bugun tuman hokimi Bahodir Xoliqov Yaponiya ta'lim tajribasi joriy etilgan maktabga tashrif buyurdi.

Tuman hokimi dars jarayonlarini kuzatdi va o'qituvchilar hamda o'quvchilar uchun ajratilgan xonalar bilan tanishdi. Pedagoglar va o'quvchilar bilan suhbatlashdi. Mazkur tajribani tatbiq etilishida tuman hokimligi ta'lim muassasasiga ko'makchi ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Tashrif davomida o'qituvchi va o'quvchilarga keng sharoitlar yaratish bo'yicha tavsiyalar, maktab xovlisida obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib borish yuzasidan esa topshiriqlar berildi.

2023-09-26 15:30:52